



MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING MINTAQADAGI GEOSIYOSIY O'RNI

Sapoyev Muhammadmustafo Umidovich

Sarbo'n universiteti talabasi

mustafosapoyev16@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasida mintaqaviy hamkorlikning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Mintaqa davlatlari — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi yoritib beriladi. Maqolada mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari — savdo-iqtisodiy aloqalar, transport tizimi, xavfsizlik hamda integratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mintaqaviy hamkorlikning Markaziy Osiyo davlatlari barqaror rivojlanishidagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy hamkorlik, integratsiya, iqtisodiy aloqalar, transport tizimi, xavfsizlik, siyosiy hamkorlik, barqaror rivojlanish.

Development of regional cooperation in Central Asia

Abstract: This article analyzes the formation and development processes of regional cooperation in the Central Asian region. It highlights the development of political, economic, and cultural ties between the regional states — Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan. The article examines the main directions of regional cooperation, including trade and economic relations, transport systems, security, and integration processes. Furthermore, the significance of regional cooperation for the sustainable development of Central Asian states is demonstrated.



Key words: Central Asia, regional cooperation, integration, economic relations, transport system, security, political cooperation, sustainable development.

Развитие регионального сотрудничества в Центральной Азии

Аннотация: В данной статье анализируются процессы формирования и развития регионального сотрудничества в регионе Центральной Азии. Освещается развитие политических, экономических и культурных связей между государствами региона — Узбекистаном, Казахстаном, Кыргызстаном, Таджикистаном и Туркменистаном. В статье анализируются основные направления регионального сотрудничества: торгово-экономические связи, транспортная система, безопасность и интеграционные процессы. Также показано значение регионального сотрудничества для устойчивого развития государств Центральной Азии

Ключевые слова: Центральная Азия, региональное сотрудничество, интеграция, экономические связи, транспортная система, безопасность, политическое сотрудничество, устойчивое развитие

Asosiy qism. Markaziy Osiyo mintaqasi hamisha jahon siyosiy sahnasida dolzarb o'rin tutgan. Ushbu mintaqaga bo'lgan geosiyosiy qiziqish hamon davom etib kelmoqda. Sobiq ittifoqning parchalanishi bilan Markaziy Osiyo mintaqasi xalqaro munosabatlar qaytadan o'z o'rniga ega bo'la boshladi. Bugungi globallashtirish jarayonida davlatlar o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlik barqaror rivojlanish, iqtisodiy taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, geografik jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlar uchun o'zaro hamkorlik savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, transport va energetika sohasini kengaytirish hamda mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi globallashtirish jarayonida davlatlar o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlik barqaror rivojlanish, iqtisodiy taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashda



muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, geografik jihatdan yaqin joylashgan mamlakatlar uchun o'zaro hamkorlik savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, transport va energetika sohalarini kengaytirish hamda mintaqada tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geosiyosiy joylashuvi, boy tabiiy resurslari va muhim transport yo'llari kesishgan hududda joylashgani bilan xalqaro munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida siyosiy muloqotning faollashuvi, savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda transport va logistika sohalaridagi hamkorlikning kuchayishi mintaqaviy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Markaziy Osiyo qadimdan turli xalqlar va sivilizatsiyalar chorrahasi bo'lib kelgan. Bu hududda qadimiy davlatlar, savdo markazlari va madaniy markazlar rivojlangan. Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoy, Hindiston, Yaqin Sharq va Yevropa davlatlari o'rtasida savdo aloqalari amalga oshirilgan.[1]

Mustaqillikdan keyin esa mintaqa davlatlari o'z milliy manfaatlariga asoslangan siyosat yurita boshladi. Bu esa yangi mintaqaviy hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi.[2]

Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti — davlatlararo mintaqaviy iqtisodiy tashkilot. 1993-yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasi bilan Qozog'iston Respublikasi o'rtasida 1994—2000-yillarda iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida bitim imzolandi. Integratsiya jarayonlariga sharoitlar yaratish maqsadlarida 1994-yil 10-yanvarda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risida Shart-noma tuzildi. Shartnomaga 1994-yil 16-yanvarda Qirg'iziston qo'shildi. 1996-yil 23 avgustda Olmaota shahrida o'tkazilgan Davlatlararo kengash majlisida Rossiya Federatsiyasi va Tojikiston Respublikasi kuzatuvchi (1998-yil 26-martdan a'zo) sifatida tashkilotga qabul qilindi. 1998 i. 17-iyulda Cho'lponota shahrida (Qirg'iziston) Yagona iqtisodiy makonni tashkil etish to'g'risidagi shartnoma



ishtirokchilari — Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy birlashmasi "Markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati" nomini oldi.[3]

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi: Mintaqaviy hamkorlikning eng muhim yo'nalishlaridan biri iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro savdo hajmini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish va qo'shma korxonalar tashkil etishga katta e'tibor qaratmoqda.[4]

So'nggi yillarda mintaqa davlatlari o'rtasidagi savdo hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Bu esa iqtisodiy integratsiya jarayonining rivojlanayotganidan dalolat beradi.[5]

Iqtisodiy hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi energetika sohasidir. Mintaqa davlatlari tabiiy gaz, neft va gidroenergetika resurslariga boy hisoblanadi. Ushbu resurslardan samarali foydalanish hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.[6]

Shuningdek, qishloq xo'jaligi, sanoat va turizm sohalarida ham qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.[7]

Transport va logistika sohasidagi hamkorlik: Markaziy Osiyo geografik jihatdan muhim transport hududi hisoblanadi. Bu hudud Yevropa va Osiyoni bog'lovchi tranzit yo'llar kesishgan joyda joylashgan.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali mintaqa davlatlari xalqaro savdo tizimida muhim o'rin egallashga harakat qilmoqda. Temir yo'l, avtomobil yo'llari va logistika markazlarining rivojlanishi savdo hajmini oshirishga xizmat qilmoqda.[8] Transport loyihalari orqali mintaqa davlatlari o'zaro savdo aloqalarini kengaytirish bilan birga, xalqaro tranzit imkoniyatlarini ham oshirilmogda.[9] Shuningdek Markaziy Osiyo davlatlari ma'lumotlarini ko'rib chiqamiz.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida aholi soni yildan-yilga ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatning doimiy aholisi soni 38 236 704



nafarni tashkil etdi.[10] Bu esa mamlakatda demografik o'sish barqaror davom etayotganini va mehnat resurslari salohiyati tobora kengayib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etib, muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy dinamikaga ega bo'lmoqda. O'zbekistonda YAIM: Real iqtisodiy o'sish 7,7% ni tashkil etib, yalpi ichki mahsulot 1,85 kvdrln so'mga yetdi. Asosiy kapitalga investitsiyalar 10,5% ga o'sdi. 2025-yilda O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YIM) hajmi joriy narxlarda 1,849 kvadrillion (kvadrln) so'mni tashkil etdi, deya xabar bermoqda Milliy statistika qo'mitasi. 2024-yil darajasiga nisbatan real o'sish 7,7% ni (6,7% edi), nominal o'sish esa 20,4% ni tashkil etdi. Iqtisodiy o'sishga eng katta hissani xizmatlar sohasi (+8,5%) va sanoat (+6,8%) qo'shdi. Ular birgalikda 5,6 foiz punktlilik o'sishni ta'minladi. Keyingi o'rinlarda qurilish (+14%), mahsulotlarga sof soliqlar hajmi (+7,4%) va qishloq xo'jaligi (+4,4%) turibdi. Aholi jon boshiga YIM 48,37 mln so'mni (o'rtacha yillik kurs bo'yicha \$3845) tashkil etdi. Bu ko'rsatkich milliy valyutada 17,1% ga o'sgan bo'lsa, 2024-yilda 30,9% ga oshgandi. [11] Ushbu natijalar mamlakatda iqtisodiy islohotlar samaradorligi ortib borayotganini hamda kelgusida yanada yuqori o'sish sur'atlariga erishish uchun mustahkam zamin yaratilayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida transport va logistika tizimini rivojlantirish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Transport logistika: O'tgan yil ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi vaqtlarda mamlakatimiz Jahon bankining "Logistika samaradorligi" indeksida 19 pog'ona ko'tarildi. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham transport va logistika xizmatlari bozori va infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l tarmoqlarini elektrlashtirish darajasini 60 foizga etkazish, tashqi savdo uchun "yashil yo'laklar" hamda tranzit imkoniyatlarini kengaytirish va tranzit yuk hajmini 15 million tonnaga oshirish



belgilangan. [12] Bundan tashqari, zamonaviy logistika markazlarini tashkil etish, avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish hamda xalqaro transport koridorlari bilan integratsiyani kuchaytirish orqali mamlakatning tranzit salohiyatini yanada oshirish rejalashtirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonning mintaqaviy logistika markaziga aylanishiga, tashqi savdo hajmining ortishiga va iqtisodiy raqobatbardoshlikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Milliy xavfsizlikni ta'minlash va davlat suverenitetini mustahkamlashda qurolli kuchlarning roli beqiyos ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Qurolli Kuchlari "Globalfirepower" reytingida 62-o'rinni egallab, mintaqada muhim o'ringa ega. Mamlakatning mudofaa byudjeti 692,5 mln dollarni tashkil etadi va 13,5 milliondan ortiq harbiy xizmatga yaroqli inson resursiga ega.

Shaxsiy tarkib va qo'shinlar: Umumiy harbiy xizmatchilar soni 65 000 nafarni tashkil qilib, ulardan 55 000 nafari bevosita jangovar tayyorgarlikdagi faol tarkibdir. Shuningdek, tizimda 15 000 nafar havo kuchlari va 550 nafar dengiz kuchlari xodimlari xizmat qiladi.

Harbiy texnika quvvati: Quruqlikda: 420 ta tank, 11 872 ta harbiy avtomobil hamda 340 ta artilleriya qurilmalari (o'ziyurar va raketa).

Havo kuchlarida: Jami 197 ta samolyot (shundan 58 tasi qiruvchi, 20 tasi hujumchi) va 99 ta vertolyot mavjud.[13]

Qozog'iston Respublikasida demografik jarayonlar barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etib, aholi sonining ortib borishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Qozog'iston Respublikasi Milliy statistika byurosi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil boshidagi ko'rsatkich (20 283 399) bilan solishtirilganda aholi soni 0,51% ga oshdi. [14] Ushbu o'sish ko'rsatkichi mamlakatda tabiiy ko'payish va migratsiya jarayonlarining



muvozanatli shakllanayotganini ko'rsatib, kelgusida mehnat bozori hamda iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Qozog'iston iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror rivojlanib, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan muhim natijalarga erishmoqda. Qozog'iston jon boshiga YAIM hajmi bo'yicha Rossiyani ortda qoldirdi. Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, Qozog'iston aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi bo'yicha Rossiyani ortda qoldirdi, bunda ko'rsatkich Qozog'istonda 14,77 ming dollarni tashkil etgan bo'lsa, Rossiyada 14,26 ming dollarni tashkil etmoqda. [15] Mazkur natijalar mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini hamda resurslardan oqilona foydalanish orqali iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi.

Qozog'iston Respublikasida transport-logistika tizimi iqtisodiy rivojlanishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllantirilib, mamlakatning tranzit salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. Qozog'iston oxirgi 10 yil ichida transport-logistika infratuzilmasiga 30 mlrd dollarga yaqin mablag' sarflagan. Bu haqda "Kazaxstan temir joli" milliy temir yo'l kompaniyasi boshqaruv raisi Kanat Alpisbayev ma'lum qildi. "Qozog'iston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishining infratuzilmaviy asoslarini ta'minlashda transport-logistika majmuasiga muhim rol ajratiladi. Oxirgi 10 yil ichida Qozog'iston transport-logistika infratuzilmasiga 30 mlrd dollar ajratgan. 2020 yilgacha yana 8,4 mlrd dollar sarmoya qilish rejalashtirilgan, bu esa Ipak yo'li savdo oqimlariga yangi impuls beradi", deb ma'lum qilgan Alpisbayev. [16] Mazkur investitsiyalar natijasida zamonaviy transport yo'laklari shakllanib, xalqaro savdo aloqalari kengaymoqda hamda mamlakatning Yevropa va Osiyo o'rtasidagi muhim tranzit hudud sifatidagi o'rnini tobora mustahkamlanib bormoqda.



Qozog'iston Respublikasida milliy xavfsizlikni ta'minlash hamda mintaqaviy barqarorlikni saqlashda qurolli kuchlarning o'rni muhim strategik ahamiyatga ega. Mamlakat harbiy salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy harbiy texnika bilan ta'minlash va professional kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Qozog'iston Qurolli Kuchlari "Global Firepower" reytingida 63-o'rinni egallaydi. Mamlakat mudofaa byudjeti 2,6 mlrd dollardan ortiq bo'lib, 6,6 milliondan ziyod harbiy xizmatga yaroqli inson resursiga ega.

Shaxsiy tarkib: Umumiy harbiy xizmatchilar soni 77 000 nafarni tashkil etadi. Shundan 45 000 nafari — faol tarkib, 32 000 nafari — harbiylashtirilgan bo'linmalar, 12 000 nafari — havo kuchlari, 3 000 nafari — dengiz kuchlari xodimlaridir.

Harbiy texnika quvvati: Quruqlikda 300 ta tank, 5 172 ta harbiy avtomobil hamda 653 ta artilleriya tizimi (246 ta o'ziyurar va 407 ta raketa artilleriyasi) mavjud. Havo kuchlarida jami 237 ta samolyot (81 ta qiruvchi, 39 ta hujumchi, 17 ta transport) va 75 ta vertolyot (25 tasi hujumchi) mavjud. [17] Ushbu ko'rsatkichlar mamlakat harbiy salohiyatining yetarli darajada shakllanganini ifodalaydi.

Turkmanistonda demografik jarayonlar uzoq vaqt davomida yopiq statistik siyosat bilan bog'liq holda kam yoritilgan bo'lsa-da, so'nggi yillarda rasmiy ma'lumotlarning e'lon qilinishi aholi tarkibi va hududiy taqsimotini yanada aniqroq tahlil qilish imkonini bermoqda. Turkmaniston Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan yig'ilishida davlat statistika qo'mitasi raisi Dovletgeldi Omonmuhammedov 2022 yil dekabr oyida bo'lib o'tgan aholini ro'yxatga olish natijasini e'lon qildi, deb xabar berdi "TDX" davlat axborot agentligi. Ma'lumotga ko'ra, Turkmanistonda ayni payt 7 million 57 841 kishi ro'yxatga olingan. Mari viloyatida 22,9 foiz (1 616 246), Dashhouzda 22 foiz (1 552 725), Lebapda 20,5 foiz (1 446 857), Ashxobodda 14,6 foiz (1 030 445), Axalda 12,5 foiz (882 230) va Bolqon viloyatida 7,5 foiz (529 338) fuqaro istiqomat qilmoqda.



Aholining “yarmidan ko‘pini” ayollar tashkil qiladi. 47,1 foiz shaharda, 52,9 foiz qishloq hududlarida yashaydi. “Xronika Turkmenistana” nashri Omonmuhammedovga tayanib ma'lum qilishicha, mamlakatda 2012 yilga nisbatan turar-joy binolari soni 12,4 foiz oshgan bo‘lib, 2022 yilda respublikada 1 005 671 ta shunday inshootlar qayd etilgan. Ilgari Turkmaniston aholisi soni haqida rasmiy ma'lumot e'lon qilinmagan, turli manbalar raqamlarni turlicha baholab kelgan. [18] Ushbu ma'lumotlar mamlakatda demografik holatni tizimli o‘rganish va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishni yanada takomillashtirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Turkmaniston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda tabiiy resurslar, xususan gaz va neft eksporti hisobiga shakllanib, yalpi ichki mahsulot hajmi barqaror makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar qatorida turadi. Turkmaniston YAIM 81,8 milliard dollarni tashkil etadi. Ushbu ko‘rsatkich mamlakat iqtisodiyotining asosiy tayanchi bo‘lgan energetika sektori, sanoat ishlab chiqarishi hamda eksport salohiyatining muhim ulushini aks ettiradi. Shu bilan birga, iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining ulushi ham ortib bormoqda. Natijada Turkmaniston YAIM tuzilmasi asta-sekin yanada kengayib, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Turkmaniston Qurolli Kuchlari "Globalfirepower" reytingida 82-o‘rinni egallaydi. Mamlakatning yillik mudofaa byudjeti 407 mln dollarni tashkil etib, 2,2 milliondan ortiq harbiy xizmatga yaroqli inson resursiga ega.[19]

Shaxsiy tarkib: Umumiy harbiy xizmatchilar soni 35 000 nafarni tashkil etadi. Shundan: 30 000 nafari — faol tarkib; 5 000 nafari — harbiylashtirilgan xizmatchilar; 3 000 nafari — havo kuchlari; 2 000 nafari — dengiz kuchlari xodimlari.

Harbiy texnika quvvati: Quruqlikda: 680 ta tank (mintaqadagi yuqori ko'rsatkichlardan biri), 8 064 ta harbiy avtomobil hamda 233 ta artilleriya tizimi



(73 ta o'ziyurar va 160 ta raketa artilleriyasi). Havo kuchlarida: Jami 86 ta samolyot (24 ta qiruvchi, 31 ta hujumchi, 5 ta transport) va 26 ta vertolyot (10 tasi hujumchi) mavjud.[20]

Qirg'iziston respublikasi Qo'mita ma'lumotlariga ko'ra, Qirg'iziston aholisi 2024-yil boshidan buyon aholi soni 91,7 ming kishiga yoki 1,3 foizga oshgan. Oktyabr oyidagi ko'rsatkich bo'yicha aholi 7 million 254 ming kishini tashkil etmoqda.

Yanvar-sentyabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 107,9 ming nafar chaqaloq va 24,2 ming nafar vafot etgan shaxslar ro'yxatga olingan. Aholining tabiiy o'sishi 83,7 ming kishini tashkil etgan[21]

Yalpi ichki mahsulot har bir mamlakat iqtisodiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u milliy iqtisodiy faollik darajasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Qirg'iziston Respublikasi iqtisodiy rivojlanishini tahlil qilishda ham ushbu ko'rsatkich alohida o'rin tutadi. Qirg'iziston YAİM 2015 yilning 11 oyi natijalariga ko'ra Qirg'iziston yalpi ichki mahsuloti 373,1 mlrd qirg'iz so'mini tashkil qildi. Bunday ma'lumotlarni Qirg'iziston milliy statistika qo'mitasi keltirmoqda.

Qo'mita ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yilda YaİM 2014 yilga nisbatan 3,6 foizga o'sgan. Qumtor konida faoliyat yurituvchi korxonalar daromadi hisobga olinmaganda YaİM 345,5 so'mni tashkil qilgan.

Bundan 154,4 mlrd so'm (o'sish 0,7 foiz), Qumtor koni inobatga olinmaganda 86,6 mlrd so'm ishlab chiqarish mahsulotlari hisobiga to'g'ri keladi.

2015 yil yanvar-noyabrda ishlab chiqarish sur'atlari o'sishining sekinlashishi sosan qimmatbaho metallar ishlab chiqarilishi pasayishi (54,7 foiz) hisobiga bo'lgan. Shu bilan bir qatorda yil boshidan metall rudalar qazib olishda (5,3 marta) va neft mahsulotlari ishlab chiqarishda (1,9 marta) o'sish saqlanib qolmoqda. To'qimachilik (13,3 foiz), kiyim-kechak (24,8 foiz), elektr qurilmalar (8,8) va boshqa nometall ma'danli mahsulotlar ishlab chiqarishda (10,4), elektr



energiya, uni uzatish va taqsimlashda (6,2) ortda qolish saqlanib qolmoqda”, deb aytilmoqda statistik ma'lumotlarda.[22]

Transport-logistika sohasida amalga oshirilayotgan yirik infratuzilma loyihalari mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish va xalqaro savdo yo'laklarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport logistika: Qirg'iziston transport va kommunikatsiyalar vazirining Kun.uz'ga bergan ma'lumotiga ko'ra:Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston temir yo'li 5 yil ichida to'liq qurib bitkaziladi. Kelishuvga muvofiq, loyihani uchala davlat ham moliyalashtiradi. Asosiy pudratchi — Xitoyning “China railways” kompaniyasi.[23]

Qurolli kuchlar: Qirg'iziston Qurolli Kuchlari "Globalfirepower" reytingida 107-o'rinni egallaydi. Mamlakatning yillik mudofaa byudjeti 116 mln dollarni tashkil etadi va 3 milliondan ortiq harbiy xizmatga yaroqli inson resursiga ega.

Shaxsiy tarkib: Umumiy harbiy xizmatchilar soni 25 000 nafarni tashkil etadi.

Shundan: 15 000 nafari — faol tarkib; 10 000 nafari — harbiylashtirilgan bo'linmalar; 500 nafari — havo kuchlari xodimlari. [24] mavjud

So'ngi yillarda demografik o'sishi yuqori bo'lgan Tojikiston aholisi 11 millionga yaqinlashdi

“Kazinform” xabar berishicha, Tojikiston aholisi 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 10,721 millionni tashkil etdi. Bu yillik 2 foiz o'sishni anglatadi.

Respublika Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2025-yil tug'ilish va migratsiya hisobiga aholi 215 000 ko'paydi. FHDYO idoralarida o'tgan yilga nisbatan 1 foiz ko'p – 255 100 yangi tug'ilgan chaqaloq ro'yxatga olindi. Tug'ilish darajasi oshishi barcha hududlarda kuzatildi. Faqat aholi soni 0,2 foiz kamayganTog'li Badaxshon muxtor viloyati bundan mustasno.



Hisobotda ro'yxatga olingan o'lim holati o'sishi ham qayd etilgan: 2024-yilga nisbatan 4,1 foiz yuqorilab, 34 400 ga yetdi. Muhojirlar oqimi yil davomida 1,7 foiz o'sib, 8429 nafarni tashkil qildi.[25]

Qurolli kuchlar har bir davlatning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ularning salohiyati xalqaro reytinglar va iqtisodiy imkoniyatlar orqali ham baholanadi. Tojikiston Qurolli Kuchlari "Globalfirepower" reytingida 120-o'rinni egallaydi. Mamlakatning yillik mudofaa byudjeti 90,1 mln dollarni tashkil etib, 3,3 milliondan ortiq harbiy xizmatga layoqatli inson resursiga ega.

Shaxsiy tarkib: Umumiy harbiy xizmatchilar soni 15 000 nafarni tashkil etadi.

Shundan: 9 500 nafari — faol tarkib; 5 500 nafari — harbiylashtirilgan bo'linmalar; 1 200 nafari — havo kuchlari xodimlari.

Harbiy texnika quvvati: Quruqlikda: 37 ta tank, 4 352 ta harbiy avtomobil va 3 ta raketa artilleriyasi. Havo kuchlarida: Jami 25 ta samolyot (shundan 1 tasi transport samolyoti) va 20 ta vertolyot (6 tasi hujumchi) mavjud.[26]

Yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlar va qiyosiy ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo bugungi kunda shunchaki geografik hudud emas, balki ulkan iqtisodiy va demografik salohiyatga ega yagona organizm sifatida namoyon bo'lmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari — Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — tarixiy, geografik va iqtisodiy jihatdan o'zaro chambarchas bog'langan mintaqa hisoblanadi. So'nggi yillarda ushbu davlatlar o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilib, siyosiy muloqot, iqtisodiy integratsiya va xavfsizlik sohalarida faollashib bormoqda.

Mintaqaviy hamkorlikning asosiy yo'nalishlaridan biri iqtisodiy aloqalarni kengaytirishdir. Savdo-sotiq hajmini oshirish, transport-logistika yo'laklarini rivojlantirish va energiya resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shma



loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, transchegaraviy temir yo'llar va avtomobil yo'llarini modernizatsiya qilish mintaqa ichidagi bog'liqlikni kuchaytirmoqda.

Shuningdek, xavfsizlik sohasidagi hamkorlik ham muhim o'rin tutadi. Terrorizm, ekstremizm va narkotrafikka qarshi kurash bo'yicha davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi va qo'shma tadbirlar yo'lga qo'yilgan.

Madaniy va gumanitar aloqalar ham rivojlanib, umumiy tarixiy merosni asrash va yoshlar almashinuvini kengaytirish orqali xalqlar o'rtasidagi yaqinlik mustahkamlanmoqda.

Umuman olganda, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston o'rtasidagi hamkorlik Markaziy Osiyoda barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining geosiyosiy joylashuvi, tabiiy resurslari hamda muhim transport yo'llari kesishgan hududda joylashgani bilan xalqaro munosabatlar tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqada joylashgan besh davlat — O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston — o'zining demografik salohiyati, iqtisodiy imkoniyatlari hamda transport-logistika infratuzilmasi orqali mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, mintaqa davlatlarining yalpi ichki mahsuloti (YAIM) ko'rsatkichlari, transport va logistika yo'llarining rivojlanishi hamda strategik harbiy infratuzilmaning mavjudligi mintaqada xavfsizlikni ta'minlash va iqtisodiy aloqalarni kengaytirishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonlar davlatlar o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishiga, transport koridorlarining rivojlanishiga va mintaqaviy barqarorlikning ta'minlanishiga xizmat qilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Xalikov, A. Markaziy Osiyoda mintaqaviy masalalar. – Toshkent, 2018. – 66-67-betlar.
2. Mirziyoyev, Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent, 2021. – 122, 123-betlar.
3. Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti [Elektron resurs]. – URL: https://uz.wikipedia.org/wiki/Markaziy_Osiyo_hamkorligi_tashkiloti.
4. Alimov, R. Central Asia: Common past and common future. – Tashkent, 2017. – 90 b.
5. Xalikov, A. Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik masalalar. – Toshkent, 2018. – 68-69-betlar.
6. Otmurodov, A. Geosiyosat asoslari. – Toshkent, 2016. – 213-214-betlar.
7. Saidov, A. Xalqaro munosabatlar nazariyasi. – Toshkent, 2019. – 138-139-betlar.
8. Alimov, R. Central Asia: Common past and common future. – Tashkent, 2017. – 92-93 b.
9. Xalikov, A. Markaziy Osiyoda mintaqaviy masalalar. – Toshkent, 2018. – 70-74-betlar.
10. Matnazarov, Otabek. O‘zbekiston aholisi: <https://kun.uz>
11. Erkinova Dinora Fayzullayevna. O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti <https://ww.spot.uz>
12. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi. Transport logistikasi [Elektron resurs]. – URL: <https://www.mintrans.uz> (Google tomonidan 2019-yilda indekslangan).
- 13.. Dunyodagi eng kuchli armiyalar reytingida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari. Copyright 1999-2026. O‘zbekiston yangiliklari. <https://UzReoprt.uz> – Email: info@uzreport.news.



14

Qozog'iston

aholisi

<https://www.facebook.com/100088829978607/posts/pfbid0GXysgWFHQ2GZqCm4w6QFv5p3gpjQjcUL6VzcZNSpsNLrcuGVMVzeJJNzgZU5tzl/>

15. Bahodirov. A Qozog'iston (Yalpi ichki mahsulot). – <https://gazeta.uz>

16. Raximov, Shuhrat. Qozog'iston transport logistikasi. – <https://kun.uz>

17. Abrorov, Doston. Dunyodagi eng kuchli armiyalar reytingi. – <https://kun.uz>

18. Islomov. Nizomjon. Turkmaniston aholi soni Google tomonidan fevral 2018 indekslangan <https://aniq.uz>

19. Umaraliyev Islombek. Turkmaniston yalpi ichki mahsuloti <https://daryo.uz>

20. Karimova Zulfiya Turkmaniston Qurolli kuchlari <https://daryo.uz>

21. Karimova Zulfiya Qirg'iziston aholi soni <https://daryo.uz>

22. Shermuhamedov Umid Qirg'iziston yalpi ichki mahsuloti qaysi tarmoqlarda yetakchi <https://kun.uz>

23. Yuldashev G'ayrat Qirg'iziston transport logistikasi <https://kun.uz>

24. Karimova Zulfiya Qirg'iziston Qurolli kuchlari <https://daryo.uz>

25. Sattorova G Tojikiston aholi soni <https://uza.uz>

26. Raximov Shuhrat Tojikiston Qurolli kuchlari <https://>